


I S T E ' M O L B O Z O R I

Chakana savdo aylanmasi joriy yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,0 %ga oshdi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,3 %ni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 138,3 %ga o'sdi.


2018 yil yanvar –may oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning 2 ta, jumladan Bo'z (97,6%) va Izboskan (96,5%) tumanlaridan tashqari barcha tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Andijon tumanii (7,6 %ga), Andijon shaxri (5,1 %ga), Honobod shahri (4,7 %ga), Shaxrixon (4,0 %ga) va Qo'rg'ontepa (3,4 %ga) tumanlarida, nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Baliqchi (0,0 %ga), Marhamat (0,0 %ga) va Asaka (0,5 %ga) tumanlarida kuzatildi.

Tuman(shahar)larning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %da



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Andijon shahri (30,1 %), Shaxrixon (13,2 %), Asaka (9,8 %), Qo'rg'ontepa (7,9 %) va Baliqchi (6,2 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ovqatlanish tashkilotlarini qoʻshgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 1,3 % ga oshib, 1314,4 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar – may oylarida 1046,7 ming so'mni tashkil qilgan edi). Oʻrtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori koʻrsatkichlari Andijon shahri (2790,0 ming soʻm), Shaxrixon tumani (1822,7 ming soʻm) va Qoʻrgʻontepa tumanida (1506,8 ming soʻm) kuzatildi.


Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 60,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 12,0 %ga oʻsdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,5 %ni tashkil etdi

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi		
	Ming soʻm	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Viloyat boʻyicha:	1314,4	101,3
Andijon sh	2790,0	103,7
Honobod sh	1235,4	103,7
<i>tumanlar:</i>		
Andijon	914,8	105,7
Asaka	1242,7	98,6
Baliqchi	1270,7	98,4
Boʻz	483,7	95,9
Buloqbooshi	620,2	100,8
Jalaquduq	785,8	101,7
Izboskan	714,7	94,8
Ulugʻnor	704,6	99,7
Marhamat	768,4	98,2
Oltinkoʻl	685,0	100,7
Pahtaobod	877,3	100,4
Hoʻjaobod	1453,1	99,3
Shaxrixon	1822,7	102,2
Qoʻrgʻontepa	1506,8	101,7

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 %ga o'sdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 78,0 %ini tashkil qildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 2500,7 mlrd.so'mini uyushmagan savdo tashkil qildi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 63,1 ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning ulushi (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Ho'jaobod tumanida 88,9 %, Baliqchi tumanida 87,2 %, Jalaquduq tumanida 84,7 %, Bo'z tumanida 84,6 %, Oltinko'l tumanida 84,5 % va eng past ulush Honobod shahrida 47,6 %, Ulug'nor tumanida 55,2 % qayd etildi.

2018 yil yanvar-may oylarida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar-may oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 717,0 mlrd. so'mni yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 104,5 %ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi tumanlarning o'sish sur'atida kamayishi kuzatildi: Jalaquduq – 20,6 %, Pahtaobod - 72,9 %, Izboskan – 82,5 %, Ho'jaobod– 85,8 %, Asaka– 87,4 %, Ulug'nor– 90,1 %, Marhamat– 90,2 %, Andijon – 90,8 %, Oltinko'l – 92,2%, Shaxrihon- 92,2%, Bo'z- 96,3%, Baliqchi- 96,8%.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 7,1 %ga o'sdi va 437,8 mlrd. so'mga yetdi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 61,1 %ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi, (foizda)

